

ALALIYALI BOLALAR BOG'LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH**B.X.Xusniddinova**

Nizomiy nomidagi TDPU Logopediya o'qituvchisi

M.J.Qobiljonova

3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11655438>

Respublikamizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga olib chiqish borasidagi ishlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalash jarayonini tarbiyalanuvchilarning alohida xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etish va ularga amaliy pedagogik yordam ko'rsatishning samarali amalga oshirilayotganida ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida¹ uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish yo'lini davom ettirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi natijasida maktabgacha ta'lim tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy dasturlar va texnologiyalarni tatbiq qilish, to'laqonli hayot faoliyatini ta'minlash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy, pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda.

To'g'ri nutq bolaning har tomonlama rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi. Bolaning nutqi qanchalik to'g'ri va lug'ati boy bo'lsa, unga o'z fikrlarini bayon qilish shunchalik oson bo'ladi, atrof – olamni idrok etish uchun imkoniyat kengayadi, kattalar va o'z tengdoshlari bilan bo'lgan munosabati to'liq va mazmunli bo'ladi, uning psixik rivojlanishi ham faol ravishda amalga oshadi. Shuning uchun ham bolalarda nutqning o'z vaqtida shakllanishi haqida, uning sof va to'g'riligi haqida qayg'urish, bola qaysi tilda nutqi shakllanayotgan bo'lsa, mana shu til normalarida namoyon bo'luvchi turli nuqsonlarni oldini olish va to'g'rilash muhim hisoblanadi.

Nutq – nafaqat aloqa vositasi, balki tafakkur rivojlanishi, yangi bilimlarni egallash usuli hamdir. Biroq bola onadan tayyor nutqni egallagan holda tug'ilmaydi: aksincha, nutq uning ijtimoiy hayoti davomida shakllanadi. «Maugli» lar hech qachon mukammal nutqqa ega bo'la olmasligi bejiz emas.

Shuningdek, nutqni rivojlantirish, nutq buzilishlarini erta tashhis qilish – ota-ona, tarbiyachi hamda logopedning vazifasi hisoblanadi. Bola nutqining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. – T.: G'afur G'ulom, 2017 – 92 b.

to'g'ri rivojlanishini tashkil qilish uchun uning rivojlanish meyorini, ya'ni darajasini bilish bilan bir qatorda bola nutqining to'liq rivojlanmasligining sabablarini ham aniq bilish muhimdir. Buning sabablari nafaqat og'ir buzilishlar, balki muloqotdagi yetishmovchiliklar, mayda qo'l motorikasini to'liq rivojlanmaganligi va h.k.lar ham bo'lishi mumkin.

Turli xil patologiyalarga ega bo'lgan bolalar nutqining shakllanishi, umuman, nutqdagi buzilishlar haqida yetarlicha adabiyotlar bo'lishiga qaramay, bizning ilmiy tadqiqot mavzuimiz dolzarbligicha qoladi. Nutqi normada bo'lgan bolalar lug'at boyligini oshirishga qaratilgan ishlarning olib borilishi qanchalik yetarli bo'lmasa, alaliyabolalar lug'at boyligini oshirishga ham, qancha ish olib borsak shuncha kam.

Nutqi normada rivojlangan bolalar leksikoni bilan alaliyabolalarning leksikoni o'rtasidagi farqni va kamchiliklarni ajratib olish juda muhimdir.

N.S.Jukova, YE.M.Mastyukova, L.N.Yefimenkova, A.V.Yastrebova, G.V.Chirkina, T.B.Filicheva kabi ko'pgina taniqli olimlar nutqning rivojlanishi, uning buzilish sabablari va shakllarini o'rganishgan, shuningdek, ularni korrektsiyalash bilan shug'ullanishgan. Shunday bo'lsa ham, ko'pgina muammolar hali ham xal qilinmagan. Buni yaqqol, alaliyabolalarning turli guruhlariga munosib differentsiatsiyalangan ishlar olib borilishi yetishmasligida ko'rishimiz mumkin. Alaliya termini nutqiy sistemaning normal eshitish va intellekt sharoitida tovush va ma'no tomoniga oid barcha kommunikativ sifatlari buzilgan, turli murakkab nutqiy buzilishlarni anglatadi. Alaliyabolalarda tovushlar talaffuzi va ularni eshitib farqlash u yoki bu darajada buzilgan bo'ladi, morfemalar sistemasini o'zlashtirish yetarlicha to'laqonli kechmaydi va natijada, so'z yasash va so'z o'zgartirish ko'nikmalari yaxshi egallanmaydi. Lug'at boyligi yosh normasidan ham miqdor ham sifat ko'rsatkichlari bo'yicha orqada qoladi; bog'lanishli nutq yetarlicha rivojlanmaydi (V.K.Vorbyeva, B.M.Grinshpun, V.P.Gluxov, R.YE.Levina, T.B.Filicheva, G.V.Chirkina va b.) Nutqiy muloqotga ehtiyoj yetarlicha qondirilmaydi. So'zlashuv nutqi qashshoq, kam so'zli, ma'lum vaziyat bilan uzviy bog'liq va shu vaziyatdan tashqarida tushunarsiz bo'lib qoladi. Bog'lanishli monologik nutq yo mavjud bo'lmaydi yo katta qiyinchilik bilan rivojlanadi va sifat jihatdan o'ziga xosligi bilan xarakterlanadi. Alaliya tobora yorqin ko'rsatkichi nisbatan, bir qarashda qaratilgan nutqni tushuna turib ekspressiv nutqning orqada qolishi sanaladi.

Hozirgi vaqtda alaliyali bolalarda nutqning leksik-grammatik tomonini shakllantirish muammosi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Alaliyali bolalarni nutqning grammatik tomonini o'zlashtirishining pedagogik-korreksion

tizimi, zarur shart-sharoitlari, uslubiy yo'nalishning keng yoritilishi o'z yechimini kutmoqda. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning bilish faoliyati, intellekti, eshitish qobiliyati saqlangan holda, nutqning fonetik-fonematik, leksik, grammatik tomonidan ma'lum kamchiliklar ustida korreksion ishlar olib borish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Воробьева В.К. Методика развития связной речи у детей с системным недоразвитием речи: учебное пособие. М.: АСТ: Астрель: Транзиткнига, 2012. 158 с. (Высшая школа).
2. Жукова Н.С. Логопедия. Основы теории и практики. Система логопедического воздействия / Н.С. Жукова, Е.М. Мастюкова, Т.Б. Филичева. М.: Эксмо, 2014. 288 с.
3. Xusniddinova B.X. Bo'lajak logoped-o'qituvchining kasbiy kompetentligi va uning komponentlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E) (2023 йил № 12)

